# XI. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

Birlamchi ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning 1- mart holatiga viloyatda jami faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalarning moliyaviy natijalariga asosan ularning foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foydasi (zarari) 74 468,2 mln so‘mni tashkil etgan.

Umumiy hajmga nisbatan olingan foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foydaning asosiy qismi, yani Namangan shahriga (39 626,9 mln so‘m), Kosonsoy tumaniga (13 272,9 mln so‘m),Chust tumaniga (11 282,8 mln so‘m), to‘g‘ri keldi.

Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foydaning sohalar kesimida tahlil qilinganda asosan, ishlab chiqarish sohasida 53 654,7 mln Ulgurji va chakana savdo sohasida 33 536,6 mln so‘mni va boshqa sohalar tashkil etdi.

2025- yilning 1- mart holatiga viloyat bo‘yicha 45 ta korxona faoliyatini zarar bilan yakunladi. Shu jumladan, 21 ta korxona Namangan shahrida, 4 ta korxona Mingbuloq tumanida, 1 ta korxona Kosonsoy tumanida, 1 ta korxona Namangan tumanida, 3 ta korxona Pop t 5 ta korxona To‘raqo‘rg‘on tumanida, 2 ta korxona Uychi tumanida, 1 ta korxona Uchqo‘rg‘on tumanida 1 ta korxona Chortoq tumanida 5 ta korxona Chust tumanida 1 ta korxona Yangiqo‘rg‘on tumanida, joylashgan. Zarar ko‘rib faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosan sanoat, sohasiga tegishli bo‘lib, ushbu sohalar tomonidan jami 19 031,5 mln so‘m zarar ko‘rgan.

2025- yilning 1- mart holatiga korxona va tashkilotlar bo‘yicha debitor qarzdorlik 3 781 737,5 mln so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 705 160,6 mln so‘mga ko’paygan, yil boshiga nisbatan esa 334 806,3 mln so‘mga ko’paygan, muddati o‘tgan debitor qarzdorlik esa, 154 434,7 mln so‘m bo‘lib, jami debitorlikning 4,1 % ni tashkil etdi va yil boshiga nisbatan 57 319,8 mln so‘mga ko’paygan.

2025- yilning 1- mart holatiga kreditor qarzdorlik 3 793 600,5 mln so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 283 762,3 mln so‘mga kamaygan va yil boshiga nisbatan 49 123,9 mln so‘mga kamaygan. Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik esa, 59 155,0 mln so‘mni tashkil etib, umumiy kreditor qarzdorlikning 1,5 % ni tashkil etdi va yil boshiga nisbatan 59 422,5 mln so‘mga ortgan.

**Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalarning debitorlik qarzdorligi** *(mln so‘m)*

| | 2024- yil 1-mart holatiga | | 2025- yil 1- mart holatiga | |
|---|---|---|---|---|
| | jami debitorlik | muddati o‘tgani | jami debitorlik | muddati o‘tgani |
| **Viloyat bo‘yicha jami** | **3 384 014,7** | **102 567,4** | **2 738 451,0** | **129 118,0** |
| Namangan sh. | 1 629 473,8 | 35 732,2 | 868 588,9 | 57 312,4 |
| Mingbuloq | 45 543,7 | 84,5 | 61 549,4 | 2 666,6 |
| Kosonsoy | 82 042,0 | - | 105 588,1 | - |
| Namangan t. | 13 311,1 | - | 11 945,5 | - |
| Norin | 8 819,0 | - | 12 205,4 | - |
| Pop | 145 127,4 | 1 735,2 | 123 829,7 | - |
| To‘raqo‘rg‘on | 444 055,9 | 64 113,8 | 352 557,5 | 64 126,0 |
| Uychi | 231 891,4 | - | 199 810,2 | 2 089,8 |
| Uchqo‘rg‘on | 249 365,0 | - | 286 084,1 | 189,1 |
| Chortoq | 625,7 | - | 47 953,5 | - |
| Chust | 533 759,9 | 901,8 | 668 231,1 | 2 734,0 |
| Yangiqo‘rg‘on | 0,0 | - | 107,6 | - |

**Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalarning kreditorlik qarzdorligi** *(mln so‘m)*

| | 2024- yil 1-mart holatiga | | 2025- yil 1- mart holatiga | |
|---|---|---|---|---|
| | jami debitorlik | muddati o‘tgani | jami debitorlik | muddati o‘tgani |
| **Viloyat bo‘yicha jami** | **3 076 577,0** | **97 669,3** | **3 781 737,5** | **154 434,7** |
| Namangan sh. | 1 544 255,2 | 31 712,6 | 1 641 787,9 | 64 273,5 |
| Mingbuloq | 42 286,7 | 65,5 | 60 649,4 | 39 897,3 |
| Kosonsoy | 42 924,4 | - | 116 964,0 | - |
| Namangan t. | 13 519,0 | - | 6 857,3 | - |
| Norin | 5 184,8 | - | 16 224,8 | - |
| Pop | 96 769,9 | 542,9 | 174 787,9 | - |
| To‘raqo‘rg‘on | 322 703,1 | 64 567,4 | 314 950,0 | 45 180,0 |
| Uychi | 225 507,6 | - | 232 928,6 | 1 722,0 |
| Uchqo‘rg‘on | 169 042,1 | - | 229 686,9 | 559,9 |
| Chortoq | 1 005,3 | - | 159 828,1 | - |
| Chust | 613 378,9 | 780,9 | 826 738,8 | 2 802,0 |
| Yangiqo‘rg‘on | - | - | 333,8 | - |

**2025- yil 1- mart holatiga korxona va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy natijalari**

| | Foyda, zarar (+,-) mln so‘m | O‘tgan yilga nisbatan % da |
|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha jami** | **74 468,2** | **-31,5** |
| Namangan sh. | 39 626,9 | 68,6 |
| Mingbuloq | -159,1 | 47,1 |
| Kosonsoy | 13 272,9 | 169,9 |
| Namangan | 478,0 | 95,0 |
| Norin | 1 267,4 | 94,0 |
| Pop | -324,1 | 39,9 |
| To‘raqo‘rg‘on | 4 962,4 | 60,5 |
| Uychi | 2 832,3 | 92,7 |
| Uchqo‘rg‘on | 1 419,9 | 40,2 |
| Chortoq | 11 282,8 | 66,5 |
| Chust | -128,2 | - |
| Yangiqo‘rg‘on | -63,0 | 19,1 |

**2025- yil 1-mart holatiga zarar bilan faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar**

| | Zarar bilan ishlayotgan korxonalar soni | Umumiy korxonalar soniga nisbatan, % da | Zarar miqdori, mln so‘m |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha jami** | **45** | **29,0** | **34 547,3** |
| Namangan sh. | 21 | 13,5 | 19 388,9 |
| Mingbuloq | 4 | 2,6 | 163,9 |
| Kosonsoy | 1 | 0,6 | 0,6 |
| Namangan | 1 | 0,6 | 41,0 |
| Norin | - | - | - |
| Pop | 3 | 1,9 | 799,4 |
| To‘raqo‘rg‘on | 5 | 3,2 | 1 464,9 |
| Uychi | 2 | 1,3 | 42,3 |
| Uchqo‘rg‘on | 1 | 0,6 | 1 517,7 |
| Chortoq | 1 | 0,6 | 669,2 |
| Chust | 5 | 3,2 | 10 372,2 |
| Yangiqo‘rg‘on | 1 | 0,6 | 87,5 |

**Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalarning ish haqqidan qarzdorligi** *(mln so‘m)*

| | 2024- yil 1-mart holatiga | | 2025- yil 1- mart holatiga | |
|---|---|---|---|---|
| | jami ish haqqidan qarzdorlik | muddati o‘tgani | jami ish haqqidan qarzdorlik | muddati o‘tgani |
| **Viloyat bo‘yicha jami** | **84 313,9** | **317,9** | **120 118,7** | **-** |
| Namangan sh. | 49 868,2 | - | 80 497,8 | - |
| Mingbuloq | 683,0 | - | 2,2 | - |
| Kosonsoy | 2 776,2 | - | 3 945,1 | - |
| Namangan t. | 1 032,4 | - | 1 581,3 | - |
| Norin | 222,3 | - | 354,3 | - |
| Pop | 703,2 | 256,6 | 667,5 | - |
| To‘raqo‘rg‘on | 11 940,8 | 61,3 | 14 008,5 | - |
| Uychi | 3 733,8 | - | 4 869,2 | - |
| Uchqo‘rg‘on | 7 740,2 | - | 2 399,1 | - |
| Chortoq | 126,6 | - | 1 808,1 | - |
| Chust | 5 487,2 | - | 9 942,0 | - |
| Yangiqo‘rg‘on | 0,0 | - | 43,7 | - |

# XII.KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1- aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 43 053 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 24 983 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 58,0 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,4 %), Chust (8,2 %), Kosonsoy, Pop, Uychi, Uchqo'rg'on va Chortoq (6,3 % dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*

| | Ro'yxatga olingan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|---|---|---|---|---|
| | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da |
| **Viloyat jami** | **43 053** | **100,0** | **24 983** | **100,0** |
| Namangansh. | 13 934 | 32,4 | 7 886 | 31,6 |
| Mingbuloq | 2 165 | 5,0 | 1 355 | 5,4 |
| Kosonsoy | 2 727 | 6,3 | 1 482 | 5,9 |
| Namangan t. | 2 614 | 6,1 | 1 459 | 5,9 |
| Norin | 2 241 | 5,2 | 1 309 | 5,2 |
| Pop | 2 699 | 6,3 | 1 883 | 7,5 |
| To'raqo'rg'on | 2 499 | 5,8 | 1 574 | 6,3 |
| Uychi | 2 722 | 6,3 | 1 466 | 5,9 |
| Uchqo'rg'on | 2 722 | 6,3 | 1 432 | 5,7 |
| Chortoq | 2 733 | 6,3 | 1 587 | 6,4 |
| Chust | 3 517 | 8,2 | 2 127 | 8,5 |
| Yangiqo'rg'on | 2 480 | 5,8 | 1 423 | 5,7 |

**Ro‘yxatdan o‘tgan sub’yektlarning hududlar bo‘yicha ulushi,** *% da*

*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (33,8 %)), sanoat (19,5 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (8,2 %) hamda qurilish (6,4 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**

*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*

| | Ro'yxatga olingan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|---|---|---|---|---|
| | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da | Birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da |
| **Jami** | **38 492** | **100,0** | **20 772** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 3 497 | 9,1 | 1 518 | 7,3 |
| sanoat | 8 393 | 21,8 | 4 027 | 19,4 |
| qurilish | 2 721 | 7,1 | 1 287 | 6,2 |
| savdo | 14 530 | 37,7 | 8 445 | 40,6 |
| tashish va saqlash | 1 505 | 3,9 | 928 | 4,5 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2 121 | 5,5 | 1 239 | 6,0 |
| axborot va aloqa | 608 | 1,6 | 331 | 1,6 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 862 | 2,2 | 652 | 3,1 |
| boshqa turlari | 4 255 | 11,1 | 2 345 | 11,3 |

**Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalari soni**

*(tashkiliy-xuquqiy shakli bo‘yicha*
*2025- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)*

**30 267** — **Mas’uliyati cheklangan jamiyat**

**1 525** — **Oilaviy korxona**

**209** — **Ishlab chiqarish kooperativi**

**6 139** — **Xususiy korxona**

**22** — **Aksiyadorlik jamiyat**

**330** — **Boshqalar**

*Mas’uliyati cheklangan jamiyat*




*Xususiy korxona*




***Mas’uliyati cheklangan jamiyat***

*Mas’uliyati cheklangan jamiyat deb,bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis xujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo‘lib zarar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.*

*Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek “mas’uliyati cheklangan” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.*

**Oilaviy korxonalar soni**

*(2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)*




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 1 525 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4 taga yoki 0,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 856 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 155 taga yoki 84,7 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 16 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70 taga yoki 18,6 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning xududlar kesimida soni**

*(2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)*



**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**
*(2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)*

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 30 267 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 935 taga yoki 6,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 702 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 994 taga yoki 94,4 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 899 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 99,2 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining hududlar kesimidagi soni**
*(2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)*




2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 5 673 ta (jamidagi ulushi 34,0 %), Pop 1 228 ta (7,4 %), Chortoq 1 205 ta (7,2 %), Chust 1 103 ta (6,6 %), Kosonsoy 1 028 ta (6,2 %), Uychi 1 026 ta (6,1 %), Yangiqo'rg'on 961 ta (5,8 %), Namangan 938 ta (5,6 %), Norin 913 ta (5,5 %), To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on 905 tadan (5,4 % ni) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 817 ta (4,9 %), tumani xissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi,** *foizda*






**Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar,** *birlikda*



**Ro‘yxatga olingan faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**

*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*

| | *Ro‘yxatga olingan* | | *Faoliyat ko‘rsatayotgan* | |
|---|---|---|---|---|
| | *birlik* | *jamiga nisbatan ulushi, % da* | *birlik* | *jamiga nisbatan ulushi, % da* |
| **Jami** | **43 053** | **100,0** | **24 983** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | |
| qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3 524 | 8,2 | 1 545 | 6,2 |
| sanoat | 8 397 | 19,5 | 4 031 | 16,1 |
| qurilish | 2 738 | 6,4 | 1 303 | 5,2 |
| savdo | 14 535 | 33,8 | 8 447 | 33,8 |
| tashish va saqlash | 1 505 | 3,5 | 928 | 3,7 |
| yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 2 123 | 4,9 | 1 241 | 5,0 |
| axborot va aloqa | 642 | 1,5 | 363 | 1,5 |
| sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 963 | 2,2 | 747 | 3,0 |
| boshqa turlari | 8 626 | 20,0 | 6 378 | 25,5 |

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi,** *% da*
*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*




Korxona va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlarning ulushi 58,0 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 42,0 % ni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda 6,5 foiz oshgan.

**Korxona va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi,** *% da*







**Faoliyatsizlar** **Faoliyat ko‘rsatayotganlar**

2025- yilning 1- aprel holatiga 20 772 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 3 005 ta, oilaviy korxonalar – 856 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 16 702 tani va 209 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi,** *birlikda*




2025- yilning yanvar-mart oylarida jami 1 025 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,2 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (282 ta), Kosonsoy (111 ta), Mingbuloq (86 ta), Pop (79 ta), Chortoq (75 ta), Chust (69 ta), Norin (63 ta), Yangiqo'rg'on (58 ta) va Uychi (57 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kami esa, To'raqo'rg'on (41 ta), Uchqo'rg'on (51 ta) va Namangan (53 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar,** *birlikda*
*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*

**810** — Avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**2 742** — Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**4 895** — Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo

**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni,** *birlikda*
*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*




**71**
**Yashash bo‘yicha xizmatlar**



**1 170**
**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar**

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni,** *birlikda*
*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*

- **Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat** — **729**
- **Yashash uchun joy bilan ta'minglangan holda parvarishlash** — **11**
- **Yashash uchun joy bilan ta'minglanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** — **7**

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot,** *birlikda*



**Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni,** *birlikda*
*(2025- yilning yanvar-mart oylarida)*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning ulushi savdoda 42,2 %, sanoatda 13,7 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 13,6 %, qurilishda 4,2 % ni tashkil etadi.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi**
*(2025- yilning yanvar-mart oylarida)*



**2025- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi**




2025- yilning 1- aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni 20 570 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 91,6 % tashkil qilgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi, ya’ni 6 567 tasi (jami sub’ektlarning 31,9 %) Namangan shahriga, 1 785 tasi (8,7 %) Chust, 1 530 tasi (7,4 %) Pop, 1 326 tasi (6,5 %) Chortoq, 1 301 tasi (6,3 %) To‘raqo‘rg‘on, 1 212 tasi (5,9 %) Namangan tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 1 058 tasi (5,1 %) Norin, 1 106 tasi (5,4 %) Mingbuloq, 1 126 tasi (5,5 %) Yangiqo‘rg‘on, 1 157 tasi (5,5 %) Uchqo‘rg‘on tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar bo'yicha soni**

| | 2024- yilning 1- aprel holatiga | | 2025- yilning 1- aprel holatiga | |
|---|---|---|---|---|
| | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da |
| **Viloyat jami** | **22 449** | **100,0** | **20 570** | **100,0** |
| Namangan sh. | 7 011 | 31,2 | 6 567 | 31,9 |
| Mingbuloq | 1 026 | 4,6 | 1 106 | 5,4 |
| Kosonsoy | 1 311 | 5,8 | 1 205 | 5,9 |
| Namangan t. | 1 420 | 6,3 | 1 212 | 5,9 |
| Norin | 1 153 | 5,1 | 1 058 | 5,1 |
| Pop | 1 569 | 7,0 | 1 530 | 7,4 |
| To'raqo'rg'on | 1 479 | 6,6 | 1 301 | 6,3 |
| Uychi | 1 326 | 5,9 | 1 197 | 5,8 |
| Uchqo'rg'on | 1 627 | 7,3 | 1 157 | 5,6 |
| Chortoq | 1 439 | 6,4 | 1 326 | 6,5 |
| Chust | 1 987 | 8,9 | 1 785 | 8,7 |
| Yangiqo'rg'on | 1 101 | 4,9 | 1 126 | 5,5 |

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 20 570 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 8 403 tasi (40,9 %) - savdoda, 3961 tasi (19,3 %) - sanoatda, 1 507 tasi (7,3 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 276 tasi (6,2 %) - qurilishda, 1 234 tasi (6,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 921 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 646 tasi (3,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 331 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 291 tasi (11,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi**
*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*




2025- yil yanvar-mart oylarida jami 988 ta kichik tadbirkorlik sub’ektlari yangi tashkil etilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 93,7 foizni tashkil etgan.

Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (268 ta), Kosonsoy (108 ta), Mingbuloq (86 ta), Pop (76 ta), Chortoq (74 ta), Chust (67 ta), Norin (63 ta), Uychi (56 ta) va Yangiqo‘rg‘on (55 ta) tumanlariga eng kam tashkil etilganlari esa, To‘raqo‘rg‘on (41 ta), Namangan (43 ta) va Uchqo‘rg‘on (51 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**2025- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo‘yicha soni,** *birlikda*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko‘p tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (432 ta), sanoatda (140 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (139 ta), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (68 ta) hamda qurilishda (42 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (27 ta), axborot va aloqada (28 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko‘rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining jami ro‘yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo‘lmoqda.

Jumladan, 2025- yil 1- aprel holatiga Namangan viloyatida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 48,3 % ni (18 251 ta) tashkil qilgan, ularning soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5 366 taga ko‘paygan.

Hisobot davrida 518 ta kichik tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan 319 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 61,6 %) ixtiyoriy tugatilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,** *% da*
*(2025- yil yanvar- mart)*




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2025- yilning 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 231 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13 taga yoki 106,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 95 tasi qo'shma korxonalar, 136 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni,** *birlikda*
*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni,** *birlikda*
*(2025- yilning 1 –aprel holatiga)*



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar 102 ta (44,2 %), Kosonsoy, Pop, Yangiqo‘rg‘on 17 tadan (7,3 % dan) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Uchqo‘rg‘on, Chortoq 6 tadan (2,6 %dan), Mingbuloq 5 ta (1,7 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi**

*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*

| | birlik | Jamiga nisbatan ulushi % da |
|---|---|---|
| **Viloyat jami** | **231** | **100,0** |
| Namangan sh. | 102 | 44,2 |
| Mingbuloq | 4 | 1,7 |
| Kosonsoy | 17 | 7,3 |
| Namangan t. | 9 | 3,9 |
| Norin | 9 | 3,9 |
| Pop | 17 | 7,3 |
| To‘raqo‘rg‘on | 14 | 6,1 |
| Uychi | 14 | 6,1 |
| Uchqo‘rg‘on | 6 | 2,6 |
| Chortoq | 6 | 2,6 |
| Chust | 16 | 7,0 |
| Yangiqo‘rg‘on | 17 | 7,3 |

Faoliyat ko‘rsatayotgan 231 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 90 tasi (39,0 %) sanoat, 56 ta (24,2 %) savdo, 22 ta (9,5 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 14 tasi (6,0 %) qurilish, 8 tasi (3,5 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 5 tasi (2,2 %) tashish va saqlashda, 5 tasi (2,2 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda hamda 25 tasi (10,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi va savdo faoliyat turiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi**

*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*

| | **birlik** | **Jamiga nisbatan ulushi, % da** |
|---|---|---|
| **Jami** | **231** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 22 | 9,5 |
| sanoat | 90 | 39,0 |
| qurilish | 14 | 6,0 |
| savdo | 56 | 24,2 |
| tashish va saqlash | 5 | 2,2 |
| yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 5 | 2,2 |
| axborot va aloqa | 6 | 2,6 |
| sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 8 | 3,5 |
| boshqa turlari | 25 | 10,8 |

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi,** *% da*
*(2025- yilning 1- aprel holatiga)*




2025- yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 18 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8 taga yoki 80,0 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 8 ta, Turkiya – 4 ta, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Eron va Pokiston Islom Respublikasi, Qirg'iziston – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Viloyatdagi 18 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar (13 ta), Pop (2 ta), To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on Yangiqo'rg'on (1 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Mingbuloq, Kosonsoy, Namangan, Norin, Uychi, Chortoq, Chust tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi**
*(2025- yil yanvar-mart)*

| | birlik | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|
| **Viloyat jami** | **18** | **100,0** |
| Namangan sh. | 13 | 72,2 |
| Mingbuloq | - | - |
| Kosonsoy | - | - |
| Namangan t. | - | - |
| Norin | - | - |
| Pop | 2 | 11,0 |
| To‘raqo‘rg‘on | 1 | 5,6 |
| Uychi | - | - |
| Uchqo‘rg‘on | 1 | 5,6 |
| Chortoq | - | - |
| Chust | - | - |
| Yangiqo‘rg‘on | 1 | 5,6 |

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 7 ta, savdoda 5 ta, qurilish 3 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, yashash va ovqatlanish, axborot va aloqa sohalarida 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni,** *birlikda*
*(2025- yil yanvar-mart)*




**2025- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni,** *birlikda*




**Oilaviy korxonalar.** Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni, 2025- yilning 1- aprel holatiga 1 525 tani tashkil etib, ulardan 856 tasi yoki 56,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning umumiy soniga nisbatan o‘rtacha 10,4 % ga kamayganligini ta’kidlash mumkin.